



DORIVOR O‘SIMLIKLAR ETISHTIRISHNING ZARURIYATI VA TARMOQNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Hamidova Zebinisa Xikmatovna,

Oblaqulova Iroda Amriddin qizi,

Toshpo‘latova Oysha O‘ralboy qizi.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
o‘qituvchilari

Annotatsiya: Maqola dadorivor o‘simliklar etishtirish mohiyati, zaruriyati, sahaning asosiy muammolari yoritib berilgan hamda tarmoqni barqaror rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Dorivor o‘simliklar, kasaliklarning oldini olish, tabobat, yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklar, rag‘batlantirish, mexanizm.

NEED FOR CULTIVATION OF MEDICINAL PLANTS AND WAYS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE NETWORK

Annotation: The article highlights the essence and necessity of growing medicinal plants, the main problems of the industry and develops proposals for the sustainable development of the industry.

Keywords: Medicinal plants, disease prevention, medicine, wild plants, stimulation, mechanism.

Dunyoda sodir bo‘layotgani ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv jarayonlari, tabiiy-iqlim o‘zgarishlari, pandemiya, shuningdek paydo bo‘layotgan yangi bakteriya va virus turlari hamda ularning tarqalish xavfi insoniyat oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu ayniqda COVID-19 paydo bo‘lishi va tarqalishi davrida yoqqol namayon bo‘ldi. Koronavirus Covid-19 pandemiyasi ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini jiddiy sinovdan o‘tkazdi. SHu bilan birga, pandemiya davrida “Buyuk yopilish” atamasi bilan kirib kelgan iqtisodiy inqiroz xalqaro xo‘jalik aloqalarida “qiymat



zanjirlari”ni uzilishi bilan birga xizmat ko‘rsatish va servis tarmoqlariga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatib Jahon iqtisodiyotining retsessiyasini boshlab berdi[1].

Yuqoridagi kabi holatlar hukumatlar oldiga kelajakda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan kasalliklarning oldini olish, aholi salomatligini tiklash hamda dori-darmonga bo‘lgan talabni ta’minlashning ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga doir keng ko‘lamli, o‘rta va uzoq muddatli islohotlar dasturini ishlab chiqishni talab etmoqda. Ushbu chora-tadbirlar dasturlaridan biri sifatida milliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, bunda tabiiy dorivor o‘simliklardan keng ko‘lamda foydalanishni nazarda tutilmoqda. Mazkur islohotlar orqali kelajakda 2020-2021 yillarda kuzatilgani kabi “global logistika zanjirining uzilishi” sharoitida ichki imkoniyatlardan to‘liqroq foydalanish, tibbiy xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatini yaratish ko‘zda tutiladi.

Ma’lumki, dorivor o‘simliklar deganda insoniyat rivojlanishining uzoq yillik tajribalari va ilmiy natijalari asosida shakllangan, inson va hayvonlarda kuzatiladigan o‘zgarishlar, ichki va tashqi biologic buzilishlarni, xususan kasalliklarni davolash, ularning oldini olish, shu bilan birgalikda kosmetika sanoati uchun homashyo sifatida foydalaniladigan o‘simlik giyohlar tushunilib, ular flora olamining eng qimmatbaho resurslaridan hisoblanadi. Ilmiy biologik tadqiqotlar davomida er yuzida mavjud o‘simliklarning o‘n ikkimingdan ortiq turi dorivor o‘simlik sifatida foydalanish mumkinligi aniqlangan.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ning ma’lumotlariga ko‘ra, mavjud dori-darmonlarning 60 foizini dorivor o‘simliklar xom ashyolaridan olingan preparatlar tashkil etadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida 112 tur dorivor o‘simliklar rasmiy tabobatda foydalanishga ruxsat berilgan bo‘lib, ushbu dorivor o‘simliklarning 80 foizini tabiiy holda o‘suvchi o‘simliklar tashkil etadi. Tabiiy holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarning ham xomashyo zahirasi chegaralangan bo‘lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini o‘rganish, xomashyo zahirasidan to‘g‘ri foydalanish va ko‘paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir[2].

Bugungi kunda mamlakatimizda mahalliy korxonalar tomonidan 100 dan ortiq o‘simlik xom ashyolari tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etilgan bo‘lib, ular 28 farmakoterapevtik guruhlariga oiddirlar. Tibbiyot amaliyotida o‘simlik xom



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

ashyolaridan oddiy (bir turdagi o'simlik xom ashyolaridan) va murakkab (ikki va undan ko'p turdagi o'simlik xom ashyosidan) retseptlar asosida o'simlik damlamalarini tayyorlash va tibbiyot amaliyotida qo'llash yo'lga qo'yilgan[3].

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham farmatsevtika sanoati jadal rivojlanib borayotgan bo'lib, tibbiyot klasterlarining tashkil etilishi natijasida dori-darmonga bo'lgan talabning salmoqli qismi respublikamizda tashkil etilgan milliy va qo'shma karxonalar tomonidan ta'minlanmoqda. Bunda tibbiyot klasteri oldiga avvalo, respublikamizda yovvoyi o'simliklar maydonini kengaytirish orqali hamashyo importini kamaytirishni ustivor vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

Shu bilan birgalikda dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlashni rivojlantirish maqsadida bir qator huquqiy xujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular mahsulot etishtiruvchilarni rag'banlantirish, tashkiliy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, dorivor o'simliklar etishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-sonli qarori qabul qilingan[4].

Mazkur qaror bilan hududlar dorivor o'simliklar etishtirish bo'yicha ixtisoslashtirildi, dorivor o'simliklar klasterlarini tashkil etildi, mahsulot etishtiruvchilarga bir qator imtiyozlar taqdim etildi. Bugungi kunda mavjud huquqiy asoslarga ko'ra, dorivor o'simliklarni etishtiruvchi xo'jaliklar, klasterlar quyidagi imtiyozlarga ega. Xususan:

-har bir gektar qishloq dorivor o'simliklar etishtirish maqsadida erlarni foydalanishga kiritish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizi, lekin bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan oshmagan qismi qoplab beriladi;

-suv ta'minoti tizimlarini qurish, rekonstruksiya qilish uchun jalb etilgan kreditlarning bir gektar hisobiga 40 million so'mdan oshmaydigan qismiga tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 5 foizlik punkti qoplab beriladi;

-davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran besh yil muddatga soliqning barcha turlarini to'lashdan, shuningdek, klasterlarda foydalanishga topshirilgan



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

paytdan e'tiboran o'n yil muddatga mol-mulk solig'ini hamda qayta ishlash qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha er solig'ini to'lashdan ozod qilingan;

-kavrak etishtirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (solig') davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 80 foizini tashkil etadigan tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan foyda solig'i, mol-mulk solig'i, er solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50 foiz miqdorida qo'llaniladi;

-kavrak etishtirishda mavsumiy ishchilarning to'liq bir mavsum ishlagan davrini ularga pensiya tayinlash uchun qonunchilik hujjatlarida tasdiqlangan, bir yillik mehnat stajiga o'tadigan mavsumiy ishlar ro'yxatiga kiritiladi;

-2022 yil 1 iyuldan 2025 yil 1 mavsumiy ishchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida undiriladi [5].

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash joizki, respublikamizda dorivor o'simliklar etishtirish va uni qayta ishlashning zaruriyati quyidagi omillar asosida shakllanmoqda. Xususan,

-tabiiy-iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar ta'sirida aholining dori vositalariga to'lgan talabi ortib borayotganligi;-epidemiya va pandemiya sharoitida milliy tibbiy xavfsizlikni ta'minlash masalasining kun tartibiga chiqishi;-dori vositalariga bo'lgan ichki talabningva xomashyoning salmoqli qismi import hisobiga ta'minlanishi;-respublikamizning tog' va tog'oldi mintaqalarida mavjud flora olami dorivor o'simliklarga boyligi, ishga solinmagan xomashyo resurslari etarliligi;-qayta ishlash sanoatida investitsion muhit jozibadorligi ortib borishi sharoitida tabiiyot klasterlarining soni va quvvati oshib borayotganligi;-aholining tibbiy madaniyati rivojlanib, kimyoviy preparatlardan ko'ra tabiiy o'simliklardan foydalanishga talab ortib borishi;-an'anaviy tibbiyotning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilayotganligi;

-dorivor o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etgan xo'jaliklarni doimiy ravishda iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda respublikada dorivor o'simliklar tabiiy zaxiralarini saqlash, ularning qayta tiklanishini ta'minlash, madaniy usulda dorivor o'simliklar plantatsiyalarini yaratish hamda qayta ishlash korxonalari va uy ho'jaliklari o'rtasida kooperatsiyani yo'lga qo'yish, dorivor o'simliklardan olinadigan xom ashyoni qayta



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

ishlash hamda tayyor va yarim tayyor mahsulot sifatida eksportga chiqarishni rag'batlantirish, shuningdek, sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish orqali tabiiy, ekologik, ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.coindesk.com/the-great-lockdown-imf-confirms-global-recession>
2. "Dorivor o'simliklarni o'stirish va etishtirish" Amaliy qo'llanma. "Agrobank" ATB –20213.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-sonli qarori,
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 apreldagi "Respublikada kavrak etishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-116 sonli farmoni.
- 5 www.lex.uz4. <https://ssv.uz/uz/documentation/dorivor-simliklar>